



THE RELEVANCE OF EXPLANATORY DICTIONARIES IN LEARNING FOREIGN LANGUAGES

Tajiyeva Zuhra Kamalbayevna

Teacher of Native Language, Independent Researcher

Academic Lyceum "International Business" of TSUI

Abstract

This article analyzes the linguodidactic significance of explanatory dictionaries in the process of learning foreign languages, in particular, English. It is highlighted that explanatory dictionaries allow the learner to understand the lexical meaning of new words, their polysemy, synonymous and antonymic relationships, grammatical features, pronunciation, stylistic coloring, and cases of use in speech. The article argues that the effective use of explanatory dictionaries helps to deeply master not only lexical, but also semantic, grammatical, pragmatic and cultural aspects of learning a foreign language.

Keywords: Explanatory dictionary, educational dictionary, foreign language, English, lexical competence, communicative competence, vocabulary, lexicography, linguistic didactics, semantics, electronic dictionary.

Introduction

IZOHLI LUG'ATLARNING BOSHQA TILLARNI O'RGANISHDAGI DOLZARBLIGI

Tajiyeva Zuhra Kamalbayevna

TDIU "International Business" akademik litseyi

ona tili fani o'qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada izohli lug'atlarning xorijiy tillarni, xususan, ingliz tilini o'rganish jarayonidagi lingvodidaktik ahamiyati tahlil qilinadi. Izohli lug'atlarning



o'rganuvchiga yangi so'zlarning lug'aviy ma'nosi, ko'p ma'noliligi, sinonimik va antonimik munosabatlari, grammatik xususiyatlari, talaffuzi, uslubiy bo'yoqdorligi hamda nutqdagi qo'llanish holatlarini anglash imkonini berishi yoritiladi. Maqolada izohli lug'atlardan samarali foydalanish xorijiy tilni o'zlashtirishning faqat lug'aviy emas, balki semantik, grammatik, pragmatik va madaniy jihatlarini ham chuqur egallashga yordam berishi asoslanadi.

Kalit so'zlar: izohli lug'at, o'quv lug'ati, xorijiy til, ingliz tili, leksik kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, lug'at boyligi, leksikografiya, lingvodidaktika, semantika, elektron lug'at.

Bugungi globallashuv va xalqaro kommunikatsiya sharoitida xorijiy tillarni o'rganish ta'lim jarayonining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Xorijiy tilni egallash faqat grammatik qoidalarni o'zlashtirish yoki yangi so'zlarni yodlashdan iborat emas. Til o'rganuvchi so'zlarning ma'nosini, ularning kontekstda qo'llanishini, uslubiy xususiyatlarini, sinonimik va antonimik munosabatlarini, grammatik birikuv imkoniyatlarini ham bilishi zarur. Shu nuqtayi nazardan lug'atlar, ayniqsa izohli lug'atlar, xorijiy til ta'limining muhim vositalaridan biri hisoblanadi.

Izohli lug'at so'z va iboralarning ma'nosini shu tilning o'zida izohlab beruvchi leksikografik manba sifatida til tizimining semantik imkoniyatlarini yoritadi. An'anaviy izohli lug'atlarda bosh so'zning ma'nosi, grammatik xususiyati va ayrim hollarda qo'llanish namunalari berilsa, zamonaviy o'quv lug'atlarida bundan tashqari talaffuz, sinonim, antonim, kollokatsiya, misollar, uslubiy belgilar va boshqa ma'lumotlar ham taqdim etiladi.

Zamonaviy tadqiqotlarda o'quv izohli lug'atlari til o'rganuvchiga yangi leksik birliklarni maqsadli va bosqichma-bosqich o'zlashtirish, ularning grammatik va pragmatik xususiyatlarini anglash hamda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga yordam beruvchi pedagogik vosita sifatida baholanmoqda.

Lug'at tilning lug'aviy tarkibini muayyan tamoyillar asosida tartibga solib, foydalanuvchiga zarur lingvistik ma'lumotni taqdim etadigan manbadir. Lug'atlarning izohli, tarjima, terminologik, frazeologik, sinonimik, antonimik, etimologik, orfoepik va boshqa turlari mavjud. Izohli lug'atning boshqa lug'at turlaridan asosiy farqi shundaki, unda so'zning ma'nosi tarjima orqali emas, balki



aynan shu tilning leksik-semantik imkoniyatlari yordamida tushuntiriladi. Masalan, ingliz tilidagi **“bright”** soʻzini oʻrganayotgan talaba uni faqat oʻzbek tilidagi bitta ekvivalent bilan emas, balki turli kontekstlarda qanday maʼno anglatishini izohli lugʻat yordamida aniqlashi mumkin.

Soʻzning: asosiy va koʻchma maʼnolari; sinonimlari; antonimlari; grammatik xususiyatlari; talaffuzi; uslubiy qoʻllanishi; kontekstual maʼnolari; boshqa soʻzlar bilan birikishi haqidagi maʼlumotlarning bir manbada jamlanishi til oʻrganuvchi uchun katta qulaylik yaratadi. Xorijiy tilni oʻrganishda asosiy vazifalardan biri oʻquvchining faol va passiv lugʻat boyligini shakllantirishdir. Bunda izohli lugʻat oddiy maʼlumotnoma emas, balki oʻquv jarayonining faol vositasi sifatida namoyon boʻladi. Izohli lugʻat bilan ishlash jarayonida oʻrganuvchi yangi soʻzning faqat tarjimasini bilib qolmaydi, balki uning mazmuniy chegaralarini ham anglaydi. Bu esa soʻzdan turli kommunikativ vaziyatlarda toʻgʻri foydalanish imkonini beradi.

Masalan, ingliz tilidagi **“run”** feʼli turli kontekstlarda turlicha maʼnolarni ifodalashi mumkin: yugurmoq; ishlamoq; boshqarmoq; davom etmoq; tashkil qilmoq.

Agar oʻquvchi soʻzning faqat bitta tarjimasini yod olsa, uni boshqa kontekstlarda qoʻllashda xatolarga yoʻl qoʻyishi mumkin. Izohli lugʻat esa polisemantik birlikning turli maʼnolarini ajratib koʻrsatib, ularning qoʻllanish shartlarini tushuntirishga yordam beradi. Shu jihatdan izohli lugʻat oʻquvchining semantik kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xorijiy tilni oʻrganishda lugʻat boyligi kommunikativ faoliyatning asosiy omillaridan biridir. Yetarli lugʻat boyligiga ega boʻlmagan oʻquvchi grammatik qoidalarni yaxshi bilgan taqdirda ham oʻz fikrini erkin ifodalashda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Izohli lugʻatdan muntazam foydalanish orqali oʻquvchi yangi soʻzlarni tematik va semantik guruhlar asosida oʻzlashtiradi. Masalan, **“happy”** soʻzini oʻrganish jarayonida oʻquvchi uning sinonimik qatoridagi **glad, joyful, pleased, delighted** kabi birliklar bilan tanishishi mumkin. Natijada uning lugʻaviy imkoniyatlari kengayadi. Bu jarayonda soʻzlarni shunchaki yodlashdan koʻra, ularning maʼno farqlarini anglash muhimdir. Masalan, **“big”, “large”, “great”** birliklari ayrim holatlarda bir-biriga yaqin maʼno bersa-da, ularning qoʻllanish doirasi va uslubiy xususiyatlari bir xil emas. Demak, izohli lugʻat



o'quvchini so'zlarning formal shakli bilan emas, ularning semantik tizimdagi o'rni bilan tanishtiradi.

Zamonaviy xorijiy til ta'limining asosiy maqsadlaridan biri kommunikativ kompetensiyani shakllantirishdir. Kommunikativ kompetensiya shaxsning til vositalaridan real muloqot sharoitida to'g'ri va maqsadga muvofiq foydalana olish qobiliyatini anglatadi.

Izohli lug'at kommunikativ kompetensiyaning bir necha tarkibiy qismlarini rivojlantirishga yordam beradi:

№	Kompetensiya turi	Izohli lug'atning ahamiyati
1	Leksik kompetensiya	Yangi so'z va iboralarni o'zlashtirish
2	Semantik kompetensiya	So'zlarning ma'no farqlarini anglash
3	Grammatik kompetensiya	So'zning grammatik xususiyatlarini aniqlash
4	Pragmatik kompetensiya	So'zning vaziyatga mos qo'llanishini tushunish
5	Uslubiy kompetensiya	Rasmiy, norasmiy va badiiy qo'llanishni farqlash
6	Kommunikativ kompetensiya	O'z fikrini aniq va maqsadga muvofiq ifodalash

Shunday qilib, lug'at bilan ishlash til o'rganishning alohida bosqichi emas, balki barcha nutq faoliyatlari bilan uzviy bog'liq jarayondir.

Xorijiy til o'rganuvchilar uchun eng murakkab masalalardan biri ko'p ma'noli so'zlarni o'zlashtirishdir. Bir so'zning bir nechta ma'noga ega bo'lishi o'rganuvchini ko'pincha chalg'itadi.

Masalan, ingliz tilidagi **“head”** so'zi:

- bosh;
- rahbar;
- yuqori qism;
- boshlanish qismi kabi ma'nolarda ishlatilishi mumkin.

O'quvchi bunday so'zlarni kontekst asosida farqlashi kerak. Izohli lug'at esa ma'nolarni tartibli ravishda berish, ularni misollar orqali tushuntirish va ayrim hollarda sinonimik munosabatlarni ko'rsatish orqali semantik farqlash jarayonini yengillashtiradi. So'nggi tadqiqotlarda ingliz va o'zbek tillaridagi o'quv izohli lug'atlarida ko'p ma'nolilikni berish masalasi alohida lingvodidaktik muammo



sifatida ko‘rilmoqda. Xususan, ma’nolarning bosqichma-bosqich berilishi va o‘rganuvchining til darajasiga moslashtirilishi lug‘atning pedagogik samaradorligini oshirishi qayd etilgan.

Til va madaniyat bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Xorijiy tilni o‘rganish jarayonida faqat grammatik va lug‘aviy birliklarni o‘zlashtirish yetarli emas. O‘rganuvchi mazkur tilda so‘zlashuvchi xalqning madaniy xususiyatlari, kommunikativ me‘yorlari va milliy dunyoqarashini ham tushunishi kerak. Ayrim so‘zlarning boshqa tilda to‘liq ekvivalenti mavjud bo‘lmasligi mumkin. Bunday vaziyatlarda izohli lug‘at so‘zning faqat lug‘aviy ma’nosini emas, balki uning qo‘llanish doirasi va madaniy kontekstini tushunishga yordam beradi. Bu jihatdan izohli lug‘atlar madaniyatlararo kommunikatsiyada yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan semantik tushunmovchiliklarni kamaytirish vositasi sifatida ham muhimdir.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi lug‘atlarning shakli va ulardan foydalanish usullarini ham o‘zgartirdi. Hozirgi kunda qog‘oz shaklidagi lug‘atlar bilan bir qatorda elektron va onlayn lug‘atlardan ham keng foydalanilmoqda.

Elektron lug‘atlarning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

- Kerakli so‘zni tez topish imkoniyati.
- Audio talaffuzdan foydalanish.
- Ko‘plab misollarni ko‘rish.
- Sinonim va antonimlarni tez aniqlash.
- Kollokatsiyalarni o‘rganish.
- So‘zning turli grammatik shakllarini ko‘rish.
- Mobil qurilmalar orqali istalgan joyda foydalanish.
- Yangilanib boruvchi lingvistik ma’lumotlardan foydalanish.

Zamonaviy o‘zbek leksikografiyasida ham elektron va korpusga asoslangan lug‘atchilikka qiziqish kuchayib bormoqda. Tadqiqotlarda zamonaviy lug‘at tuzish jarayonida elektron leksikografiya va korpus lingvistikasi imkoniyatlaridan foydalanish istiqbolli yo‘nalish sifatida ko‘rsatiladi. Lug‘at bilan ishlash o‘quvchining mustaqil ta’lim olish qobiliyatini rivojlantiradi. O‘qituvchi har bir yangi so‘zning ma’nosini tayyor holda berishi o‘rniga, o‘quvchini lug‘atdan mustaqil foydalanishga o‘rgatishi maqsadga muvofiq.

Buning uchun quyidagi algoritmdan foydalanish mumkin:



1-bosqich. Notanish soʻzni aniqlash.

2-bosqich. Soʻzning lugʻatdagi bosh shaklini topish.

3-bosqich. Soʻz turkumini aniqlash.

4-bosqich. Asosiy va ikkilamchi maʼnolarni oʻrganish.

5-bosqich. Misollardagi qoʻllanishini tahlil qilish.

6-bosqich. Sinonim va antonimlarini aniqlash.

7-bosqich. Soʻzning oʻz nutqida qoʻllanishiga misol yaratish.

Bunday yondashuv oʻquvchini passiv bilim oluvchidan faol tadqiqotchiga aylantiradi. Izohli lugʻatlardan samarali foydalanish uchun oʻqituvchi lugʻat bilan ishlashni darsning turli bosqichlariga integratsiya qilishi mumkin.

Masalan:

- yangi mavzuni tushuntirishda;
- yangi soʻzlarni oʻrgatishda;
- matn ustida ishlashda;
- mustaqil topshiriqlarda;
- tarjima mashqlarida;
- yozma nutqni rivojlantirishda;
- ogʻzaki nutqni rivojlantirishda;
- nazorat va baholash jarayonida.

Ayniqsa, yangi soʻzlarni kontekstda oʻrganish, keyinchalik lugʻatdagi izoh bilan solishtirish va mustaqil gaplar tuzish usuli samarali natija beradi. Tadqiqotlar izohli oʻquv lugʻatlari va assotsiativ tajribadan birgalikda foydalanish yangi leksik birliklarni eslab qolish va nutqiy koʻnikmalarni mustahkamlashga yordam berishini koʻrsatadi.

Oʻzbek va ingliz tillari tipologik jihatdan bir-biridan farq qiladigan tillardir. Ingliz tili asosan analitik xususiyatga ega boʻlsa, oʻzbek tili agglutinatив tuzilishga ega. Shu sababli bu tillarni oʻrganishda lugʻat materiallarini taqdim etish tamoyillari ham ayrim jihatlarda farqlanadi. 2025-yilda eʼlon qilingan tadqiqotda ingliz va oʻzbek tillaridagi oʻquv izohli lugʻatlari qiyosiy oʻrganilib, ingliz tilidagi lugʻatlarda soʻz chastotasi va semantik soddalik muhim mezonlardan biri ekani, oʻzbek tilidagi lugʻatlarda esa morfologik murakkablik va soʻz yasalishi xususiyatlariga koʻproq eʼtibor berilishi qayd etilgan. Bu holat oʻquv lugʻatlarini yaratishda tilning tipologik xususiyatlarini hisobga olish zarurligini koʻrsatadi.



Izohli lugʻatlar xorijiy tillarni oʻrganish jarayonida muhim lingvodidaktik vosita hisoblanadi. Ularning asosiy vazifasi faqat yangi soʻzlarning maʼnosini tushuntirishdan iborat emas. Izohli lugʻatlar oʻrganuvchiga soʻzning semantik tuzilishi, grammatik xususiyati, uslubiy boʻyoqdorligi, sinonimik va antonimik munosabatlari, kontekstual qoʻllanishi hamda kommunikativ imkoniyatlarini anglashga yordam beradi. Izohli lugʻatdan muntazam va metodik jihatdan toʻgʻri foydalanish natijasida oʻquvchining lugʻat boyligi kengayadi, semantik tafakkuri rivojlanadi, mustaqil ishlash koʻnikmasi shakllanadi va kommunikativ kompetensiyasi takomillashadi. Shuningdek, elektron izohli lugʻatlarning rivojlanishi xorijiy til oʻrganish imkoniyatlarini yanada kengaytirmoqda. Audio talaffuz, kontekstual misollar, sinonimlar, antonimlar va kollokatsiyalarning bir platformada taqdim etilishi oʻrganuvchiga til birliklarini kompleks ravishda oʻzlashtirish imkonini beradi.

Demak, izohli lugʻatlar xorijiy til taʼlimida yordamchi vosita sifatida emas, balki leksik, semantik, grammatik, pragmatik va kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi kompleks lingvodidaktik resurs sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati. - Toshkent: Oʻzbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2002.
2. Jamolxonov H. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. - Toshkent: Talqin, 2005.
3. Mengliyev B. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. - Toshkent: Excellent Polygraphy, 2020.
4. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. 6 jildlik. - Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022.
5. Nation I. S. P. Learning Vocabulary in Another Language. - Cambridge: Cambridge University Press, 2001.
6. Schmitt N. Vocabulary in Language Teaching. - Cambridge: Cambridge University Press, 2000.
7. Schmitt N. Researching Vocabulary: A Vocabulary Research Manual. - New York: Palgrave Macmillan, 2010.



-
8. Tosheva D. M. Linguistic Stratification in Learner's Explanatory Dictionaries: Typological and Pedagogical Analysis // Yangi O'zbekiston ilmiy tadqiqotlar jurnali. - 2025. - 2-jild, 8-son. - B. 40-45.
 9. Tosheva D. M. Formation of Language Competence through the Use of Educational Explanatory Dictionaries and Associative Experience in Language Teaching (Based on English and Uzbek Languages) // International Multidisciplinary Journal for Research & Development. - 2025. - Vol. 12, Issue 09. - P. 70-76.
 10. Tosheva D. M. A Linguodidactic Analysis of English and Uzbek Explanatory Learners' Dictionaries: Focus on Associative Experiment // Academic Research in Modern Science. - 2025. - P. 68-73.
 11. To'raqulova D., Donaboyeva Sh. Lug'atlar tuzish nazariyasi va amaliyoti // ORIENS. - 2025. - B. 588-594.
 12. Tojiboyeva M. Thematic Groups of English Words in the Explanatory Dictionary of the Uzbek Language // Eurasian Journal of Technology and Innovation. - 2024. - Vol. 2, No. 8. - P. 5-8.